

ADABIY TA'LIMDAGI CH. AYTMATOV "OQ KEMA" ASARINI O'RGANISH HAQIDA

Ergasheva Iroda Abdumuxtor qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent,
O'zbekiston

Annotatsiya

Mazkur maqolada mashhur qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov ijodi, xususan uning "Oq kema" qissasi tahlil qilinadi. Qissada ko'tarilgan mavzular hamda qaahramonlar haqida kuzatuvlar bayon qilinadi. Asarni o'rganishda "Kalit so'zlar" hamda "Qayta hikoya" metodlarining ahamiyati ta'kidlanadi. Xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar:

qirg'iz adabiyoti, proza, Chingiz Aytmatov, "Oq kema" qissasi, o'rganish metodlari.

Respublikamizdagi ta'lim tarbiya sohasidagi islohotlarning asosi metodika sohasiga qaratilgan. Ta'lim beruvchi nazariy bilimlarini metodika bilan uyg'unlashtira olsagina ta'lim sifati oshadi. Bugungi kunda o'quvchilarning badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish va bu orqali o'quvchilarning o'qib tushunish malakasini rivojlantirish, og'zaki nutqini oshirish va o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish orqali hayotga tayyorlab borish adabiyot o'qitish metodikasining muhim vazifalaridandir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'zbek adabiyoti namunalari bilan bir qatorda jahon adabiyotining durdona asarlari ham o'qitiladi. Xususan, qirg'iz xalqining atoqli yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asari ham o'quvchilarning badiiy tafakkurini o'stiradigan, dunyoqarashini kengaytiradigan asar hisoblanadi. Asar asrlar davomida qadrlab kelingan an'ana, urf-odatlariga sodiqlik, ota-bobolarga cheksiz hurmat, o'z o'zligi va tarixini unutmaslik ruhida yozilgan. "Ota-bobolarimizni eslasak, bizni ajib his-tuyg'ular chulg'ab oladi. Ular uzoqqa ketmaganlar. Illo, o'zimiz ham ularning qavatiga kirajakmiz. Mudom ularni yodlab turish bizning burchimiz, ularning xotirasi o'zimiz uchun zarur. Ularning mozoriga tashlaganimiz bir siqim tuproq – bizni bog'lab turgan rishta hisoblanadi."¹ Asarda tilga qalamga olingan mavzularni mangu mavzular deyish mumkin, ya'ni hayotimizdagi barcha davr va bosqichlarda duch kelishimiz mumkin bo'lgan jarayonlar, umuminsoniy tuyg'ular ifodasi uyg'unlashtirilgan. Shuningdek, asarda quvonch va azob, mehr va oqibatsizlik, yaxshilik va yomonlik, xokisorlik va vahshiylik, mehnatsevarlik va birovlar mehnati evaziga kun ko'rish ziddiyatlariga duch kelamiz. Asar qahramonlarining qalb kechinmalari, quvonch-u azoblari milliylik bilan yo'g'rilgan. Asardagi Mo'min chol va bolaning ruhiyati bilan kitobxon ruhiyati uyg'unlashib ketgandek. Mo'min cholning og'ir ruhiy holatlarini ta'sirlanmasdan o'qish ilojsizdek. Badiiy asarda aks etgan mavzu va muammoning aniqlab olish asar tahlilida muhimdir. Asarni tahlil qilishda bir jihat o'quvchilarning e'tiborini tortadi: asardagi asosiy qahramonlar Mo'min chol, bola, Bo'key va O'rozqulning o'z muammolari va iztirob-alamlari yozuvchi tomonidan mahorat bilan tasvirlangan, lekin asar so'nggida hech bir muammo o'z yechimini topmaydi. "Ko'p hollarda badiiy asarda birvarakayiga bir necha muammo ko'tariladi, ammo ularning katta qismi hal etilmay qolib ketaveradi. Bu tabiiy hol. Negaki, badiiy adabiyot – hayotdagi muammolarni hal qilishga emas, balki ularning borligini ko'rsatishda diqqat qaratdigan hodisa."² "Oq kema" asarining o'qitilishi bo'yicha bir qancha tavsiyalarni berib o'tamiz. Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda darslarni innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etish, bu jarayonda ta'lim oluvchining yosh xususiyatlarini hisobga olib, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda metod va texnologiyalarni tanlay olish muhimdir.

¹ Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori". T.,Sharq. 1998-y. 78-bet

² Yo'ldoshev Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari.T., 2016-y 66-bet

"Kalit so'zlar bilan ishlay olish" - bu topshiriqning asosiy xususiyati matndagi kalit so'zlarni ajratib olib, ularning ma'nosi va asarning umumiy mazmunidagi o'rnini aniqlashdan iborat. (Adabiyot o'qitish metodikasi 287-bet). Asardan kalit so'zlar tanlab olinadi. "Oq kema" asaridan "bug'u", "qirg'iz", "Issiqko'l", "oq kema" so'zlarini kalit so'z sifatida tanlash mumkin. O'quvchilar tomonidan bu so'zlarning ma'nosi o'rganiladi, badiiy asar matni bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi. "O'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish ularning adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirishda muhim omil vazifasini o'taydi."³ bu esa badiiy asarni tahlil qilishda, asardagi qahramonlarning ruhiyatini tushunishda, asarning asosiy g'oyasini anglab yetishda katta yordam beradi. "Tahlilni so'zdan obrazga, obrazdan ifodaga, ifodadan fikrga tartibida amalga oshirish yaxshi samara beradi."⁴

"Qayta hikoya" metodining asosiy maqsadi o'quvchilarning og'zaki nutqini riojlantirishdan iborat. "Qayta hikoya" metodi adabiyot o'qitishning samarali metodlaridan hisoblanadi. O'qituvchi tomonidan "Oq kema" asari sujetining qisqacha, lekin muhim qismlari mantiqiy izchillikda hikoya qilib beriladi. O'quvchilar esa eshitganlarini matn ko'rinishida yozib, yozilgan matnni qayta hikoya qilib beradilar. Bu jarayonda o'quvchilarning tinglab tushunish, yozish hamda qayta hikoya qilish asosida og'zaki nutqi rivojlanadi. Shuningdek, asar voqealarining ma'lum qismi bolaning tilidan hikoya qilinadi. O'quvchilar bu qismlarni o'z gacha shavq bilan o'qiydilar va hikoya qilib beradilar. Bunda o'quvchilarning intellektual qabul qilishi hamda vazifani bajarishda ma'lum tafovutlar bo'lishi tabiiy hol sanaladi. Lekin mahoratli o'qituvchi natijadorlikni yuqoriga ko'tarishi mumkin.

"Vizual o'qitish" metodi vizual o'qitish ya'ni o'quvchilar ko'rgazmali qo'llanmalarni (jadvallar, rasmlar, badiiy buyumlarning reproduksiyalari, doska eskizlari va boshqalar) namoyish etishlari kerak. Bu metod o'quvchilarga "Oq kema" asar qahramonlari, ularning tashqi ko'rinishlari va asarda tasvirlagan tabiat manzarasi haqida yanada aniqroq tasavvurga ega bo'lishlarida ko'maklashadi. Asosiy figuralar: bola, ona bug'u, Issiqko'l, oq kema, o'rmon tasvirini rasmlarda aks ettiradilar. Bu ijodiy ishlarini birgalikda namoyish qiladilar. Bu o'quvchida asar bo'lgan qiziqishini ortishiga ko'mak beradi. Agar o'rganilayotgan mavzuga o'quvchi qiziqsa, mavzuni o'rganish o'quvchi uchun hech qachon qiyin bo'lmaydi.

Bu metodlarni qo'llashda albatta muayyan guruhning, talaba-o'quvchilarning tayyorgarliklari va umumiy saviyasini ham nazarda tutmoq kerak.

Gardnerning *"Turfa zakovatlar"* asarida ham turli iqtidor egalari bo'lmish o'quvchilar ruhiyatiga mos yondashuv kerakligi ta'kidlab o'tiriladi⁵.

Demak, tajribalarimizga asoslanib, o'qituvchi Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasini o'qitishda yuqoridagi metodlarni sinab ko'rib, yuqori natijaga erishishi mumkin deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aytmatov Ch. "Oq kema". T., Sharq. 2003
2. Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori". T., Sharq. 1998
3. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. T., 2016.
4. Adabiyot o'qitish metodikasi
5. Matchanov S., Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg'unligi. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2020-yil 7-son. 8-bet
6. www.uz.revome.com/ Kendra Cherri. Gardnerning ko'p intellektual nazariyasi.

³ Matchanov S., Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg'unligi. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2020-yil 7-son. 8-bet

⁴ Yo'ldoshev Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. T., 2016-y 63-bet

⁵ www.uz.revome.com/ Kendra Cherri. Gardnerning ko'p intellektual nazariyasi.